

Elchi



13:05 / 26.10.2019 2890

9

Alloh ularga o'zlaridan bir kishini elchi qilib yuborishni va ularga nasihat qilishini xohladi. Albatta Alloh birma-bir gaplashmaydi, albatta Alloh, har-bir kishiga xitob qilib, unday qil, bunday qil, demaydi. Albatta podshohlar, birma-bir gaplashmaydilar. Albatta podshohlar, har-bir kishining oldiga borib, unday qil, bunday qil, demaydilar. Podshohlar ham bashar kabi bir insondirlar. Har bir inson, ularni ko'rib, so'zlarini eshita oladi. Lekin hech kim Allohni ko'rib, uning so'zlarini eshita olmaydi, bunga hech kim qodir ham emas. Faqat Alloh xohlagan kishigina, eshitib ko'ra oladi. Alloh, insonlarga bir elchi yuborib, ularga pandu-nasihat qilib, gapirishini xohladi.